YODGORA NASRIDDINOVANING O‘ZBEKISTON SSR IJTIMOIY SIYOSIY HAYOTIDA TUTGAN O‘RNI

Xakimjonova Nilufar
Tarix fani bo’yicha PhD tadqiqotchisi

Annotatsiya. *Ushbu maqola O’zbekiston SSR da birinchi rahbar ayol Yodgora Nasriddinovaning siyosiy maydonga kirib kelishi va siyosiy, ijtimoiy, ma’muriy sohada amalga oshirgan islohatlari haqidagi muhim ma’lumotlarni o’z ichiga oladi.*

Kalit so‘zlar. *O’zbekiston SSR, siyosiy hayot, Qizil O’zbekiston, ijtimoiy islohot, ma’muriy islohot, sanoat, ishchilar.*

KIRISH

O’zbekiston SSR Oliy Soveti Prezidiumida rahbar sifatida faoliyat yuritgan bir nechta chinakam rahbarlik qobilyatiga ega shaxslar faoliyat olib borgan bo’lib, ular qatoriga Yo’ldosh Oxunboboyev, Abduvali Mo’minov, Amin Niyozov, Sharof Rashidov, Nazar Matchonov, Inomjon Usmonxo’jayev, Oqil Salimov, Rafiq Nishonov, Po’lat Habibullayev, Mirzaolim Ibrohimovlarni kiritish mumkin. Shunday rahbarlar qatorida o’zining qat’iyati va og’ir kechmishi, ayanchli taqdiri bilan alohida ahamiyatga ega shaxs bu Yodgora Nasriddinovadir. Takidalash joizki, Yodgora Nasriddinovaning hayotida, uning siyosiy faoliyatidagi shiddatli yuksalishda Usmon Yusupovning roli juda katta bo’lgan. Dastlab, Komsomol yetakchisi bo’lgan Yodgora Sodiqovna oradan biroz vaqt o’tgach O’zbekiston SSR sanoat komissari lavozimiga tayinlanadi.

Yosh qizga berilgan bu ishonch va imkoniyatning har biri Yodgora Nasriddinova faoliyatida juda katta turtki bo’ldi. Yodgora Nasriddinovaning 35 yoshida O’zbekiston SSR Komissarlar sovetining raisi o’rinbosari lavozimiga tayinlanishi esa uning hokimyatining eng yuqori eshelonlarida faoliyatini davom ettirishga imkoniyat yaratdi. U 39 yoshida esa shu paytdagi SSSRning oliy siyosiy rahbari N.S.Xrushchevning taklifiga binoan O’zbekiston SSR Oliy Soveti Prezidiumining raisi lavozimini egallaydi. Mazkur lavozimni Sh.Rashidov qariyb 10 yil davomida egallab , keyin 1959-yilda O’zbekiston Kompartiyasi MK ning birinchi sekretari etib saylanadi.

O’zbekiston SSR Oliy Soveti Prezidiumining raisi lavozimiga tayinlanishi yuzasidan O’zbekiston Kompartiyasi MK ning byurosining majlisini Respublika siyosiy rahbari Sh.Rashidov olib boradi. Ushbu yuksak lavozimga bir nechta nomzodlar bo’lib, ularning barchasi yetarlicha obro’ va nufuzga ega edi. Ular orasida Y.Nasriddinova ham bor edi va bu lavozimga aynan u munosib ko’riladi. Yodgora

Nasriddinova shu bilan bir vaqtda, mamlakatdagi siyosiy tartibga binoan O'zbekiston SSR Oliy Soveti Prezidiumining raisi bo'lganligi sababli SSSR Oliy Soveti Prezidiumi raisining o'rinbosari lavozimini ham egallaydi. U mazkur lavozimlarda to 1970-yilga qadar faoliyat olib boradi. Yodgora Nasriddinova O'zbekiston SSR Oliy Soveti Prezidiumi raisi bo'lgan davrda davlatning siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy hayotiga daxldor bo'lgan bir necha qarorlar qabul qilinishiga rahbarlik qilgan. Yodgora Nasriddinovaning o'zi ham kambag'al oilada og'ir va mashaqqatli mehnati evaziga voyaga yetgani uchun sovet hokimyatining sotsializm qurish, feodal va mustamlaka o'tmish qoldiqlarini bartaraf etish g'oyasi ostida amalga oshirilgan harakatlarda faol ishtirok etgan.

O'zbekiston SSR Oliy Soveti Prezezidiumi rahbari bo'lgan Yodgor Nasriddinova Respublika ijtimoiy hayotini tartibga solish, sanoatni rivojlantirish, ishchilarni munosib taqdirlash va ularning siyosiy ongi va faolligini oshirishga doir qator tadbirlarni amalga oshirishda bosh bo'ladi. Respublika miqyosida amalga oshirilgan shunday muhim siyosiy qonunlardan biri bu ichkilikbozlikni taqiqlash haqidagi qonundir. Yodgora Nasriddinova bu qonunning asosiy himoyachisi va uni ijro etilishini qat'iy turib himoya qilgan shaxslardan bo'ldi. Yodgora Sodiqovna nafaqat ma'muriy-hududiy sohaga ba'lki Respublika ijtimoiy hayotiga oid qarorlarning qabul qilinishiga alohida e'tibor qaratadi.

O'zbekiston Sovet Sotsialistik Respublikasi Oliy Soveti Respublika aholisining tobora o'sib borayotgan moddiy va madaniy ehtiyojlarini yanada ko'proq qondirish, tabiiy boyliklarni qo'riqlashni kuchaytirish, tuproq, yerosti boyliklari, suvlar, o'simlik va hayvonot dunyosidan to'g'ri foydalanish, ilmiy va amaliy ahamiyatga ega bo'lgan mashhur tabiat yodgorliklarini va tarixiy joylarni qo'riqlash zarurligini nazarda tutib nir nechta muhim qarorlar qabul qiladi. Ulardan biri 1959-yil 19-noyabrda qabul qilinadi. Qarorning 1-moddasida yer va yerosti boyliklari, suvlar, atmosfera havosi, hayvonlar, qush va baliqlarning qimmatli va kamyob turlari va hayvonot dunyosining yo'q bo'lib ketishi xavfi ostida qolgan turlari, tarixiy va revolutsion voqealar bilan bog'liq bo'lgan, tabiiy landshaftning elementi hisoblangan, shuningdek mehnatkashlarning sog'ligini yaxshilash va ularning dam olishi uchun qulay bo'lgan joylar qo'riqlanishi zarur deb topildi.

Yodgor Nasriddinova rahbarlik faoliyati davomida qudratli elektrostansiyalar jumladan, Qayroq-qum, Angren elektr stansiyasi, yangi zavodlarning qurilishi, Chirchiqdagi karbit zavodi qurilishi, 1955-yilda qurilgan Samarqand superfosfat zavodining bunyod etilishi, Respublika bo'yicha yangi yo'llar, avialiniyalar, gaz quvurlarining yotqizilishi, hashamatli "Paxtakor" stadionining qurilishi, Toshkent tele-markazining qurilishiga boshchilik qiladi. Yodgora Nasriddinova boshqa rahbarlarga o'xshamasdi. Vazirlik tomonidan aytilgan har qanday topshiriqni

mukammal tarzda bajarishga harakat qilardi, topshiriq bajarilmaguniga qadar, obekt qurilishi yo'lga qo'yilmagunicha ishxonasiga ham kelib o'tirmasdi. U uch oylab ham uyiga bormasdan, Respublikada mavjud g'isht zavodlari, sement zavodlari, shisha zavodlari mahsulotini to'liq o'rganib chiqardi. Uning bunday mehnat qilishi, jonkuyarligi, uni boshqa rahbarlardan ajratib qo'yardi.

Yodgora Nasriddinova o'z faoliyati davomida qanchalik sidqidildan xizmat qilmasin, o'zini bag'ishlamasin o'sha davrdagi bo'g'iq muhit uning siyosiy va ijtimoiy hayotiga jiddiy ta'sir ko'rsatdi. Xulosa qilib aytganda, Yodgora Nasriddinova O'zbekiston tarixida nafaqat birinchi yirik rahbar ayollardan biri, balki murakkab siyosiy davrda faoliyat yuritgan kuchli siyosatchi sifatida ham muhim o'rin egallaydi. U og'ir bolalik va murakkab hayot yo'liga qaramay, o'z mehnati, qat'iyati va bilimlari orqali yuqori davlat lavozimlariga erishdi. Ayniqsa, O'zbekiston SSR Oliy Soveti Prezidiumi raisi sifatidagi faoliyati uning mamlakat siyosiy hayotidagi o'rnini yanada mustahkamladi.

Shuningdek, Yodgora Nasriddinovaning faoliyati ayollarning davlat boshqaruvidagi o'rni va imkoniyatlarini namoyon etgan tarixiy misollardan biri hisoblanadi. U sovet davridagi siyosiy jarayonlarda faol qatnashib, o'zbek ayollarining jamiyatdagi mavqeini oshirishga xizmat qildi. Shu bilan birga, uning hayoti siyosiy kurashlar, "paxta ishi" bilan bog'liq ayblovlar va keyinchalik oqlanish jarayonlari orqali davrning murakkab siyosiy muhitini ham aks ettiradi. Bugungi kunda Yodgora Nasriddinova obrazi O'zbekiston tarixida iroda, matonat va ayol rahbarlik timsoli sifatida baholanadi.

Uning faoliyati va hayot yo'li zamonaviy tadqiqotlar uchun muhim tarixiy manba bo'lib xizmat qiladi hamda yosh avlodni ilm-fan, rahbarlik va Vatanga xizmat qilish ruhida tarbiyalashda alohida ahamiyat kasb etadi. U o'z davrida ayollarning davlat boshqaruvidagi rolini kuchaytirishga xizmat qilgan, og'ir hayot sinovlariga qaramay yuqori lavozimlarga erishgan hamda o'zbek ayollarining siyosiy faolligi uchun muhim tarixiy shaxs bo'lib qolgan. Uning faoliyati bugungi kunda ham tarixchilar tomonidan o'rganilib, O'zbekiston siyosiy tarixining muhim sahifalaridan biri sifatida baholanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI

1 Nasriddinova Y. Tanlangan nutqlar va maqolalar. – Toshkent: O'zbekiston davlat nashriyoti, 1962.
2 O'zbekiston SSR tarixi. – Toshkent: Fan, 1971. – 546 b.
3 Ahmedova M. O'zbek ayollarining davlat boshqaruvidagi o'rni. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2018. – 214 b.

4 Karimov Sh. O‘zbekiston siyosiy arboblari tarixi. – Toshkent: Sharq, 2005. – 328 b.
5 Jo‘rayev N. O‘zbekiston tarixi (XX asr). – Toshkent: Sharq, 2011. – 482 b.
6 Qosimov B. O‘zbekistonning sovet davri siyosiy tarixi. – Toshkent: Akademnashr, 2014. – 356 b.
7 Sodiqov H. Mustabid tuzum davrida O‘zbekiston rahbarlari faoliyati. – Toshkent: Tafakkur, 2007. – 264 b
8 Norboyeva Z. Sharqdagi birinchi parlament raisi Yodgor Nasriddinova haqida // Conference on Universal Science Research. – 2023. – №4. – B. 112–116.
9 Abduvohidova R.D. qizi. Yodgor Nasriddinova – hayot sinovlarida toblangan ayol // Modern Education and Development. – 2025. – №6. – B. 45–49.
10 Rashid A. Central Asia: Political History and Soviet Legacy. – London: Routledge, 1994. – 287 p.

